

2. Bektoshev O. K., Makhmudova S., Makhmudova S.M. Linguocultural characteristics of precedent units in modern linguistics. Galaxy international interdisciplinary research journal (GIIRJ) ISSN (E):2347-6915. Vol.10, Issue 12, Dec (2022)

BOLALAR HAYOTIDA XALQ OG'ZAKI IJODI VA BOLALAR ADABIYOTINING O'RNI

**O'zbekiston. NIU Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili)
yo'nalishi talabasi Usmonova Shahlo Anvar qizi
O'zbekiston. NIU Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasи
dotsenti, PhD. Kobulova Nodira Bahodirovna**

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalar adabiyoti orqali xalq og'zaki ijodi bolalardan ona-Vatanga sadoqat, mehnatga ishtiyoy, qahramonlik, do'stlik, baynalmilallik kabi oljanob insoniy fazilatlarni tarbiyalashdagi o'rni haqida mulohaza yuritilgan.

Kalit so'zlar: Bolalar adabiyoti, xalq og'zaki ijodi, ma'rifiy-estetik g'oya, ertak, qo'shiq, topishmoq, maqol, poetik ijod, baynalmilallik, vatanparvar, insonparvar, mehnatsevar, sadoqatli.

РОЛЬ НАРОДНОГО УСТНОГО ТВОРЧЕСТВА И ДЕТСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ В ЖИЗНИ ДЕТЕЙ

Аннотация: В данной статье через детскую литературу рассматривается роль фольклора в воспитании у детей таких благородных человеческих качеств, как верность Родине, трудолюбие, героизм, дружба, интернационализм.

Ключевые слова: Детская литература, фольклор, воспитательно-эстетическая идея, сказка, песня, загадка, пословица, поэтическое творчество, интернационализм, патриотический, гуманитарный, трудолюбивый, верный.

THE ROLE OF FOLK ORAL CREATION AND CHILDREN'S LITERATURE IN THE LIFE OF CHILDREN

Abstract: In this article, the role of folklore in children's upbringing of noble human qualities such as loyalty to the Motherland, passion for work, heroism, friendship, and internationalism is discussed through children's literature.

Key words: Children's literature, folklore, educational-aesthetic idea, fairy tale, song, riddle, proverb, poetic creation, internationalism, patriotic, humanitarian, hardworking, loyal.

Ijtimoiy ong shakllari, mafkuraviy ishning barcha sohalari kabi, bolalar adabiyoti ham voqelik bilan, hayotdagi turli ijtimoiy hodisalar hamda insoniyat turmushi bilan uzviy bog'liq bo'lib, ularni o'ziga xos vositalarda badiiy aks ettiradi. Bolalar adabiyotida aks ettiriladigan voqelik hayotiy, haqqoniyl

tasvirlanishi hamda ularning ruhiyatiga, ongiga mos, tushunarli va qiziqarli bo‘lishi kerak. Bunday asarlar yosh kitobxon qalbida muayyan o‘y-fikr uyg‘otishi, uning nafosatini o‘stirishi va eng muhimi voqelikka nisbatan ma’lum munosabat uyg‘otishi lozim. Haqhoniylik va badiiylikning mukammal birligi bolalar adabiyotining ham zarur shartidir.

Atoqli rus pedagogi va adib A.S.Makarenkoning ko‘rsatishicha, bolalar adabiyoti ma’lum ma’noda o‘ziga xos badiiy xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak. Tasvir-hikoyaning soddaligi va jiddiy mantiqiy izchilligidan tashqari, unda ifodalanuvchi ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi kurash ham aniq, badiiy bo‘yoqlarda, haqqoniy tasvirlanishi lozim. Shunga ko‘ra, bolalarga atalgan badiiy asarlar ularning xarakter xususiyatlarini to‘la namoyon qilishi bilan bir qatorda, pedagogika va psixologiya fanlari bilan uzviy aloqada bo‘lishi, demakki, muayyan ma’rifiy-estetik g‘oyani ilgari surishi lozim.

Bolalar adabiyoti yosh avlodning badiiy kamoloti va ma’naviy boyligining bitmas-tuganmas xazinasidir.

Xalq og‘zaki ijodi uning turmush tajribalari asosida yuzaga kelgan bo‘lib, mehnat jarayoni bilan chambarchas bog‘langan. Xalq donoligi shu mehnat jarayonining turli va o‘ziga xos shart-sharoitlariga muvofiq ravishda bolalar uchun ham ajoyib ertaklar, qo‘shiqlar, topishmoqlar, maqollar yaratgan. Ularni bolalar juda sevib tinglaydilar va o‘qiydilar. Xalq og‘zaki ijodi bilan bolalar mакtabgacha tarbiya yoshidan boshlab tanisha boshlaydilar. Xalq og‘zaki poetik ijodidagi obrazlarning yorqinligi, so‘z ma’nolarining aniqligi, matnning ohangdorligi, musiqiyligi kabi xususiyatlar bola ruhiga orom, huzur bag‘ishlaydi, uni o‘ziga mahliyo etadi. Kichik va o‘rta yoshdagи bolalar qahramonlik dostonlarini shavq-zavq bilan o‘qishadi, ertak, qo‘sinq va topishmoqlarga g‘oyat qiziqishadi. Xalq og‘zaki poetik ijodida yaxshilik-yomonlik ustidan, to‘g‘rilik-egrilik ustidan g‘alaba qiladi, mehnatkash xalqning intilishlari, turli orzu-istiklari haqqoniy va favqulodda qiziqarli ravishda hikoya qilinadi. Shuning uchun xalq og‘zaki poetik ijodi bolalar kitobxonligidan doimo o‘rin olib keladi.

Xalq og‘zaki ijodida mehnat ahlining urf-odati, tabiat va jamiyat hodisalariga bo‘lgan munosabati, baxtli hayot haqidagi ezgu tilak va orzulari, qayg‘u va shodlik hislari, ularning qahramonlik, vatanparvarlik va insonparvarlik tuyg‘ulari, dushmanqa nisbatan g‘azab va nafrati, yengilmas irodasi, haqiqat, adolat, baxt haqidagi o‘y va tushunchalari aks ettiriladi. Xalq yaratgan asarlar o‘zining chuqur mazmundorligi va badiiyligi bilan xarakterlanadi. Xalq og‘zaki ijodining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari yozma adabiyotning rivojlanishiga ham ijobjiy ta’sir ko‘rsatdi. Bu ta’sir bolalar adabiyotining yuksalishida o‘z aksini topdi.

Bola tarbiyasida qo‘sinqning roli juda katta. Qo‘sinq lirikaning eng qadimgi shakllaridan biri bo‘lib, kuylashga mo‘ljallangan bir necha bandli she’rdir. Qo‘shiqlar kuy-ohang bilan aytiladi. Ba’zan qo‘sinq o‘yin bilan birga ijro etiladi. Demak, qo‘sinq uchun she’r va kuy kerak. Qo‘sinq xalq og‘zaki ijodining eng ko‘p tarqalgan va ommalashib ketgan janrlaridan biridir. Qo‘shiqlar xalq turmushi va mehnatining ijodiy mahsuli bo‘lib, unda xalqning orzu-tilaklari, qalb sadolari, turli-tuman hayotiy tuyg‘ulari ifodalanadi. Qo‘shiqlar bolalarning nafosatini

o'stirishga, ularni hayot va mehnatga munosabat, vatanparvarlik, do'stlik, qahramonlik, baynalmilallik, insonparvarlik kabi oljanob fazilatlar ruhida tarbiyalashga yordam beradi. Qo'shiq hayot mohiyati va mazmuniga mos shakllarda tuziladi.

Bolalarni vatanparvar, sadoqatli, mard va qahramon qilib tarbiyalashda qo'shiqlarning roli kattadir. Qo'shiq bolani erkalatadi, o'yinga boshlaydi, uning his qilish qobiliyatini o'stradi, fikrlashga o'rgatadi. Bola tug'ilgan kundanoq onanining mehr to'la allasini tinglaydi. Bunda ona bolaga bo'lgan samimiyligi, chuqr muhabbati bilan birga, farzandining jamiyatga mos eng yaxshi fazilatlar egasi bo'lib tarbiyalanishini ta'sirli, ohangdor qo'shiq orqali ifodalaydi:

Alla bolam, alla,
Jonim bolam alla,
Ikki ko'zim alla,
Shirin so'zim alla.
Alla bolam baxti bor,
Har narsaning vaqtি bor.
Jonim bolam alla,
Shirin bolam alla,
Ikki ko'zim alla.

Allada yaxshi tarbiya ko'rgan bola jamoat o'rtaida, to'y-tomoshalarda ota-onanining obro'yi, uning shuhrati sifatida ta'riflanadi. Shuningdek, bolaning to'g'ri tarbiyalanishida ota-onanining roli katta ekanligi ko'rsatiladi. Garchi bola allanining so'zlarini tushunmasa ham, undagi ohang orqali ma'lum ma'naviy oziq oladi, ruhida muayyan o'zgarishlar ro'y beradi. Shunga ko'ra, allalar bolalarni chaqaloqlik davridayoq ohanglar vositasida ezgulikka chorlaydi. Demak, qo'shiqlar bolani ruhiy chiniqtirishda, so'z boyligini oshirishda, estetik, nafosat tarbiyasini berishda qo'shiqlarining tarbiyaviy ahamiyati katta.

Bolalar hayotida ertaklarning o'rni. Xalq og'zaki ijodi tilning boyligi, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari bilan bolalar adabiyotining yuksalishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Xalq og'zaki ijodi asarlari xayollarga juda boydir. Bu xususiyatlar, ayniqsa, xalq yaratgan ertaklarda ko'proq ko'zga tashlanadi.

Ertak - bolalarning jonu-dili. Xalq og'zaki poetik ijodidagi eng boy va rang-barang janrlardan biri ertakdir. Turli yoshdagи bolalarga munosib xalq yaratgan minglab ertaklarimiz bor. Bu ertaklar hayvonlar, parrandalar, jodugar kampirlar haqidagi sehrli, afsonaviy hamda ijtimoiy-maishiy (realistik) xarakterdadir. Ertaklar o'zining ijtimoiy kelib chiqishi bilan uzoq o'tmishga, ota-bobolarimiz zamonasiga taqaladi. U davrdan-davrga, avloddan-avlodga o'tib, bizgacha yetib kelgan va bundan keyin ham insoniyatning bitmas-tuganmas madaniyati xazinasi sifatida yashayveradi. Ertaklarda xalq hayoti, kurashi, ruhiyati, dunyoqarashi, urfodatlari mujassam bo'ladi. Ulardagi ijobiy qahramonlar o'z maqsadlari yo'lida harakat qilib, barcha to'siq va qiyinchiliklarni mardlik bilan yengib, murodu maqsadlariga yetadilar.

Mehnat—yashash va hayotning asosi. Shuning uchun ertakda mehnatsevarlar taqdirlanadi, yalqovlar jazolanadi. Bunday ertaklar bolalarni

mehnatsevar, qahramon qilib tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Tabiat olami bilan bog‘liq ertaklar ham kichkintoylarga katta quvonch bag‘ishlab keladi. Bolalar bepoyon, go‘zal, musaffo dalalar, sershovqin o‘rmonlar, baland-baland tog‘lar, tezoqar daryo-anhorlar bilan yaqindan tanishadilar, ulardan zavqlanadilar. Tabiat manzarasining tasvirlanishi asarning his-hayajon ta’sirini kuchaytiradi hamda bolalarda hayotga muhabbatni oshiradi, ularning his-tuyg‘ularini uyg‘otadi. Ertaklar turli ijtimoiy sharoitlardagi sinfiy kurash zaminini, o‘shanga muvofiq mazmun va tushunchalarni ifodalaydi. Shuning uchun ham ertaklar orqali kishilarning turli sharoitdagи hayotini, sinfiy kurashini osonlik bilan tushunish mumkin.

Bolalar uchun “Sholg‘om”, “Bo‘g‘irsoq”, “Bo‘ri va yetti uloq”, “Qumursqa”, “Chivinboy” “Zumrad va Qimmat”, “Podachining qizi” kabi va boshqa ko‘pgina ertaklar yaratilgan. “Sholg‘om” ertagi o‘yin-ertakdir. Unda voqealar takrorlanishi bilan birga o‘zgarib ham boradi. Ertak suhbat-dialog asosida qurilgan. Bu ertak bolalarni fikrlashga, voqealarni tartib bilan aytishga, so‘z boyligini oshirishga o‘rgatish bilan birga, kichkintoylarda mehnatga muhabbat, jamoa bo‘lib ishslash, yashash hislarini tarbiyalaydi. “Bo‘g‘irsoq” ertagi ham o‘yin-ertak bo‘lib, voqealar takrorlanish jarayonida o‘sib boradi. Avvalo, ertakda bo‘g‘irsoqning qanday tayyorlanishi bolalarga tushuntirilgach, tayyor bo‘lganidan so‘ng uning yo‘lga tushib yumalab ketaverishi hikoya qilinadi. Yo‘lda u o‘zini yemoqchi bo‘lgan quyon, bo‘ri va ayiqlarni o‘z ashulasi bilan mahliyo qilib aldab, ulardan qutuladi. Eng oxirida bo‘g‘irsoq tulking til yog‘lama gaplariga, aldamchi maqtovlariga eriy ketadi. Tulki taltayib ketgan bo‘g‘irsoqni kuylab turgan mahalida yeb qo‘yadi. Bu ertak bolalarni fikrlashga, takror voqealarni to‘g‘ri ifodalashga, qo‘shiqlarni ohangdor qilib aytishga, hushyorlikka chaqiribgina qolmay, hayvonlarning o‘ziga xos xususiyatlarini bilib olishga o‘rgatadi. Ertakda, ayniqsa, bo‘g‘irsoqning maqtanchoqligi, farosatsizligi, tulking ayyor, yolg‘onchi, olg‘ir va hiylagarligi bolalarbop iboralarda sodda, qiziqarli ifoda etilgan.

“Zumrad va Qimmat” ertagidaadolat, mehnat va yaxshilik ulug‘lanadi. Unda bir-biriga qarama-qarshi xarakterdagи Zumrad va Qimmat obrazlari tasvirlanadi. Zumrad chiroyli, odobli, muloyim, aqli va mehnatsevar qiz sifatida gavdalaniadi. Bunday qizlarni insongina emas, hattoki tabiat ham ulug‘laydi: “Barvaqt ko‘zasini ko‘tarib, soy yoqalab buloq boshiga borarkan. Yo‘lda lolalar, rang-barang gullar uni ko‘rib, boshlarini egib, unga salom berarkanlar. . . Gullar uni olqishlar, bulbullar quvonib, unga qo‘shiqlar aytib berar ekanlar”. Qimmat esa injiq, dimog‘dor, ishyoqmas, muomalasi qo‘pol qiz. Hatto, gullar ham Qimmat kelsa, qovoqlarini solib, yumilib qolar ekanlar. O‘gay ona Zumradni ko‘rgani ko‘zi, otgani o‘qi yo‘q. Yovuz kampirning butun kuni urish-janjal, to‘polon bilan o‘tarkan. Kampir oxiri cholga Zumradni o‘rmonga olib borib adashtirib kelishni aytadi. Zumrad o‘rmonda adashib yurib bir sehrgarning uyiga borib qoladi va uning xizmatlarini yaxshi bajarib, kampirga ham manzur bo‘ladi. Sehrgar kampir qizga qizil sandiqni to‘ldirib, umrining oxirigacha yetadigan mol-dunyo berib jo‘natadi. Buni ko‘rgan o‘gay ona o‘z qizi Qimmatni ham o‘rmonga borib adashtirib kelishni aytadi. Qimmat ham o‘sha sehrgar kampirning uyiga boradi,

lekin kampir ish buyursa, o'zing qil, men sening malaying emasman, deb javob beradi. Kampir unga oq sandiqni tortiq qiladi. Ona-bola hammani uydan chiqarib, sandiqni ochsa, undan ikki ajdar chiqib onasi bilan qizini yutib, derazadan chiqib ketadi. Ertakda rahmsiz, bag'ritosh, baxil va molparast kampirga nisbatan bolada nafrat uyg'onadi. Ayni chog'da, Zumrad obrazi orqali mehnatsevarlik, to'g'rilik, aql-idrok ulug'lanib, yaxshilikning yomonlik ustidan tantana qilishi ko'rsatiladi. Bu ertak bolalarni odobli, aqli, to'g'ri va mehnatsevar bo'lishga undaydi. Ertaklar bolalar fikr va tasavvurlarini boyitadi va ularni ijodiy ishga ruhlantiradi.

Bolalar tarbiyasida maqollarning o'rni. Xalq yaratgan g'oyat ixcham, chuqur va tugal ma'noli gaplar, she'riy parchalar maqol deb ataladi. Maqol xalqning, bir necha avlodlarning aqlu-farosati hamda turmush tajribasining yakuni, ular donishmandligining mahsulidir. Maqollarda hayotning achchiq-chuchugini tatib ko'rgan, turmushdagi hodisalarga aql ko'zi bilan qaraydigan, sof vijdonli, oljanob mehnatkash kishining biror voqeа-hodisadan, biror kishidan yoki biror ishdan chiqargan xulosasi bayon qilinadi. Bu xulosa biror kishi uchun (ko'proq bolalar uchun) yo'l ko'rsatuvchi bo'lib xizmat qilishi mumkin. Maqollar xalqning aql-idroki, ijtimoiy-tarixiy tajribasi, kurashi hamda mehnatinning badiiy ifodasi sifatida yaratilib kelinmoqda. Maqollarda xalqning turmush tajribalari umumlashtirib beriladi. Maqollar chuqur ma'noni ifoda eta bilishi, ixcham, pishiq va puxtaligi bilan xalq og'zaki ijodining boshqa turlaridan farq qiladi. Ularda mehnatkash xalqning orzu-umidlari, o'zaro munosabatlari, vatanparvarlik, insonparvarlik xislatlari, o'y-fikrlari o'ziga xos shaklda aks etgan bo'ladi. Shu sababdan ular bolalarni to'g'ri, mantiqiy fikrlashga, maqsadni qisqa, ixcham va lo'nda bayon etishga o'rgatadi, ularning badiiy didini oshiradi, tarixiy hodisalarning mohiyatini yaxshiroq, chuqurroq payqab olishga yordam beradi. Shu bilan birga, maqollar ona tilining eng nozik badiiy xususiyatlarini bilishga va so'z boyligini oshirishga katta yordam beradi. Shuning uchun ham so'z san'atkorlari, shuningdek, bolalar yozuvchilari xalq og'zaki ijodiga, ayniqsa, maqollarga ko'proq murojaat etganlar va ulardan unumli foydalanganlar.

Maqollar mavzu jihatdan boy, xilma-xil va rang-barangdir. Ularda ona-Vatanni sevish, uni ichki va tashqi dushmanlardan ko'z qorachig'idek saqlash, unga sodiq bo'lish g'oyalari juda ixcham, ohangdor bir shaklda, obrazli ifodalarda gavdalantirilgandir:

Bulbul chamanni sevar, Odam — Vatanni.

Ona yurting omon bo'lsa, rangi ro'ying somon bo'lmas.

Do'stlik-birodarlik, dushman nafrat, ahillik va birdamlik g'oyalari ham maqollarning asosiy mag'zini tashkil etadi:

Ko'kka boqma, ko'pga boq!

Do'st so'zini tashlama, tashlab boshing qashlama.

Maqollar bolalarni biyron so'zlashga o'rgatib, ularga estetik zavq beradigan, fikr va qobiliyatini o'stiradigan, xotirasini mustahkamlashda muhim hisoblanadi.

Xalq og'zaki ijodi bolalar adabiyotining yuksalishida, yosh avlod tarbiyasida juda muhimdir. Bolalardan ona-Vatanga sadoqat, mehnatga ishtiyoq, qahramonlik, do'stlik, baynalmilallik kabi oljanob insoniy fazilatlarni tarbiyalashda buloqdek

qaynab-toshgan xalq og‘zaki ijodining roli beqiyosdir. Bunda bolalar xalq og‘zaki ijodiyotining namunalari — doston, ertak, maqol, topishmoq, latifa, terma va qo‘shiqlarni qiziqib o‘rganadilar, ulardan o‘zlariga zarur bo‘lgan muhim tarbiyaviy xulosalar chiqaradilar.

Xulosa qilganda, bolalar adabiyotida xalq og‘zaki ijodi bolalar ma’naviyatini boyitadi, ularga ma’rifiy-estetik zavq beradi, hayotni bilishga va uni sevishga, bolani zehnini, ongini yuksaltirishga yordam beradi hamda ularning lug‘at boyligini oshirib, nutqini o ‘stiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Safarov O., Jamilova B., Safarova N. Bolalar adabiyoti va folklor. Uslubiy qo’llanma. T.: 2015-yil
2. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti. T., 2010-yil
3. Safarov O., O‘zbek bolalar poetik folklori, T., 1995 yil.
4. M Maxmudova, N Qobulova. Boshlang’ich sinflarda innovatsion texnologiyalardan foydalanish. Академические исследования в современной науке, 2022 237-240-b

МЕСТО РУССКОГО ЯЗЫКА В РЯДУ ДРУГИХ УЧЕБНЫХ ДИСЦИПЛИН

**Шодиева Р.С. - преподаватель кафедры филология
обучения языкам Навоийской университета инновации, Узбекистан**

Аннотация: В статье речь идет о месте русского языка в ряду других учебных дисциплин, о целях обучения русскому языку, о месте русского языка среди других языков и о его функциях.

Ключевые слова и понятия: знание, путь добывания знаний, развитие, передача готовых знаний, отобранные знания, образцы деятельности, периоды развития отечественной школы, овладение языком, восприятие чужой мысли.

THE PLACE OF THE RUSSIAN LANGUAGE IN A NUMBER OF OTHER ACADEMIC DISCIPLINES

Abstract: The article discusses the place of the Russian language in a number of other disciplines, the purposes of teaching Russian language, the position of Russian language among other languages and its functions

Keywords: knowledge, the way of acquiring knowledge, development, transfer of ready-made knowledge, selected knowledge, models of activity, periods of development of the domestic school, mastery of language, perception of other people's thoughts.